

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701328**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapda fonetik o'zgarish asosida yozilgan sodda yasama fe'l ot so'z turkumidan hosil qilingan?
A) *U do'stlikning bu darajada astoydil harakat qilishidan juda quvondi.*
B) *Saroy ahli hovli o'rtasiga o'rnatilgan so'rida choyxovlik qilishardi.*
C) *Shundoq chiroyli qiz ham bunaqa yig'loqi bo'ladimi?*
D) *Yolg'iz sen emassan, otam, vujudagi o'qdan qiyalib tolgan.*
2. Tarkibidagi barcha olmoshlar fonetik o'zgarishga uchragan gapni aniqlang.
A) *Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinisa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.*
B) *Birovning do'stlar-u xorijlari bor, Mening hech kimim yo'q - o'zingdan boshqa.*
C) *Shunday bo'lmog'iga asos bor edi, chunki ikkalasi bir ko'chada o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.*
D) *Anovi kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchig'landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o'shanga berdilar.*
3. Payt holi shakllantirishga sizni qilgan yordamchi so'z turkumiga oid so'z qatnashgan gapni toping.
A) *Havo issiq bo'lgani uchun tun salqinida yo'lga chiqdik.*
B) *Yo'lovchilar bu sahroga qadam qo'yishlari bilan safar yanada og'irlashdi.*
C) *Faqat kechalar she'r yozganimda barcha tashvishni unutaman.*
D) *Shu payt Alishening oilasi va bir necha kishi kirib, unga salom berishdi.*
4. Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi fonetik o'zgarish asosida yozilgan?
A) *Tergovchilar bu qoidabuzarlik ayblanuvchining o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamagani sababli yuzaga kelganini hisobga oldilar.*
B) *Beshafqat shamol sovuqdan qaltirayotgan daraxtning so'nggi yaprog'ini ham uchirib ketdi.*
C) *Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yo nihoyatda sovuq bo'ladi.*
D) *Tovushlarning shirin-achchig'i, Bordir hatto yumshoq-qattig'i.*
5. Qaysi gapda barcha yopiq bo'g'inlar faqat til undoshlari bilan tugagan?
A) *Tursun tomda tursin.*
B) *Eng buyuk jasorat bu - ma'naviy jasoratdir.*
C) *Guvoah sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.*
D) *"Hamma balo tildan keladi", - deydi bobom.*
6. Amu bilan Sirdan suv ichgan, Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda. Parchadagi uyushgan bo'laklar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Uyushgan aniqlovchilar holga qatlangan.*
B) *Uyushiq sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan.*
C) *Uyushiq o'rin holi qatnashgan.*
D) *Uyushgan hollar aniqlovchiga tobelangan.*
7. Daraxtni undiradigan, o'stiradigan, mvasini laziz qiladigan quyosh, yer va soy bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir. Ushbu gap haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri emas?
A) *ega, kesim, ega uyushgan*
B) *barcha aniqlanishlar uyushiq bo'laklarga tobelangan*
C) *tobe va hokim qismlari uyushgan bo'lak bilan ifodalangan moslashuvli tobe bog'lanish hosil bo'lgan*
D) *vositasi to'ldiruvchi uyushiq kesimga bilvosita bog'langan*
8. Quyida berilgan nechta so'z faqat bir turkum doirasida shakldoshlik xususiyatiga ega?
shox, tovon, es, savdo, qon, in
A) 5ta B) 3ta C) 2ta D) 4ta
9. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot so'z turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?
1) inmoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 5
10. Metafora usulida ma'no ko'chishi sodir bo'lgan qaysi birlikda paronim juftiga ega so'z qatnashgan?
A) *sof yashamoq* B) *darz piyola* C) *temir intizom* D) *tuz totmoq*
11. Agarda yolg'ondan bersa guvohlik, Uning ham gunohin kechirmas Xoliq. Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa forig',
Bilingki, ularning manglayi yorug'. Ushbu she'riy parchada olmoshlarining necha ma'no turi qatnashgan?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
12. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko' qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexostanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi. Berilgan parchada ravishga oid nechta o'rinda qatnashgan?
A) 5 B) 4 C) 2 D) 3
13. Son turkumiga oid so'z otlashgan gaplarni aniqlang.
1. To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas. 2. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi. 3. Mingta shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi. 4. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 1, 4
14. Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkum(lar)iga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan bo'laklar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Yordamchi so'zlarning barchasi ko'makchilar hisoblanadi.*
B) *Yordamchi so'zlar bilan shakllangan bo'laklarning kesimga bilvosita va bevosita tobelanishi kuzatiladi.*
C) *Yordamchi so'zlar ikki o'rinda otni, bir o'rinda fe'lni hokim qismga tobelantirgan.*
D) *Yordamchi so'zlar bir o'rinda hol, ikki o'rinda to'ldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan.*
15. Ikkala qismidagi eganing shakldoshi mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.
A) *Tongga yaqin tuman tushdi va atrofdagi daraxtlar ko'rinmay qoldi.*
B) *Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-yu, keyin havo ochildi.*
C) *Olma ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan nishondir.*
D) *Bu yil cho'llarda o't mo'l, chunki yong'ir ko'p yog'di.*
16. To'rt tomoni ...ujralar bilan o'ralgan sa...na o'rtasidagi sadaqayrag'och sho...larida chumchuqlar chirqillayd, allaqayerlardan qaldirg'ochlar otilib kelib, ...ovli ichiga kirib ketadi. Ushbu gapda nechta so'zda ko'p nuqtalar o'rniga bog'iz undoshi qo'yilishi lozim?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
17. Sizning bu hayotda orzularingiz ko'zlagan maqsadingiz qiladigan ishlaringiz ko'p lekin hech qachon unutmangki sizning eng buyuk eng muqaddas vazifangiz yurtimiz istiqloqini xalqimiz ozodligini ko'z qorachig'iday asrashdir. Ushbu gapda tushirilgan vergullarning nechtasi faqat uyushgan bo'laklar o'rtasida ishlatiladi?
A) 5 B) 3 C) 4 D) 2
18. Ham qaratqich aniqlovchini, ham sifatlovchi aniqlovchini tobelantirgan to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) *Sho'irning yangi she'riy to'plami uning muxlislari tomonidan qizg'in kutib olindi.*
B) *Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar.*
C) *O'sha kundan beri Nodiraning qop-qora ko'zlari xayolimdan ketmay qoldi.*
D) *Kimki mehri daryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi haqida izlab qo'ysin.*
19. Qaysi gap tarkibida olmoshga nisbatan hokim, harakat nomiga nisbatan tobe munosabatda bo'lgan so'z to'ldiruvchi vazifasida kelgan?
A) *Garchi bu hol ularni oqlashiga tirmoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga biroz tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi - shularning biri edi.*
B) *Darveshlarning zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi.*
C) *O'z Vatani sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.*
D) *Bu masalalarni yechish kerak.*
20. Qaysi gapda ham yig'iq, ham yoyiq undalma qo'llangan?
A) *Chin uyingda sen qolursan, Qo'sh qanotim, yaxshi qol!*
B) *Yellar, bir daqiqga to'xtang esishdan, Sernavo bulbullar, sayramang biroz.*
C) *Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!*
D) *Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?*
21. Berilgan she'riy parchada ot kesimlar sonini aniqlang. Yangi yil, Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi. Sen yangi yo'ldoshsan, sen yangi hamdam,

- Yo'qlab kelganingni o'zi bir bayram.
Qulog'ingga bir gap aytaymi, endi,
Qirqinchi qasrimga o'taymi endi,
Kechagi yoshligim etakmi endi?
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
22. Qaysi gapda fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan fe'l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
A) *Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovlarning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.*
B) *Hokimlar oldida tilining uzun bo'lganiga ishongan ellikboshi fuqaroni sira mensimaydi.*
C) *Ovqat ustida Xadicha qishloqda bo'lib o'tgan hamma hodisalar haqida gapirdi.*
D) *Kal ketaverdi, ketaverdi, horib, suvsab, oqshab, boshini bir joyga qo'yib yotdi.*
23. U akalari bilan suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Hamma yerni gullagan bog'ga aylantiribdi. Shunda yurtni sonsiz yov bosibdi. Dushmanlar ekinzorlarni ayovsiz paymon qilishibdi, daraxtlarni yoqib yuborishibdi. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini belgilang.
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
24. To'kilmogda tomchilab urar,
Malaklarning gul kosasidan.
Berilgan she'riy parchadagi to'rtta morfemadan iborat so'z(lar)ning sintaktik vazifasini aniqlang.
A) *kesim, hol* B) *aniqlovchi, kesim* C) *hol* D) *kesim*
25. Qaysi javobda R. Thokurning Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan she'riy to'plami nomi berilgan?
A) *"Suratlar va qo'shiqlar"*
B) *"Tonggi qo'shiqlar"*
C) *"Chitragoda"*
D) *"Gitanjali"*
26. Berilgan qaysi g'azallar hasbi hol yo'nalishida yozilmagan?
1) Turdining "Tor ko'ngullik beklar. . ." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 2) Turdining "Turdiman" radifli g'azali; 3) Nodiraning "Kel, dahri imtihon etib ket. . ." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 4) Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azali.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 4
27. Hozirgacha ham o'z jozibasini yo'qotmagan "Yorqinoy" dramasi qaysi ijodkor qalamiga mansub?
A) *Furqat* B) *Cho'lpon* C) *Fitrat* D) *Abdulla Avloniy*
28. "Kuntug'mish" dostoni haqida berilgan qaysi ma'lumot noto'g'ri?
A) *Qoraxon podsho necha yillardan beri o'zining o'rniga qushbegisini qo'yib, Kuntug'mishning o'tiga kuyib, tagzaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotar edi.*
B) *El Xolbeka va Xolmo'inning sut emganini bilmas edi va Xolbeka Xolmo'inning baxshandasi deb aytib yurishar edi.*
C) *Odamlar bo'ri olib ketgan bolaning ismini Mohiboy, baliq olib ketgan bolaning otini Gurkiboy deb atashdi.*
D) *Kuntug'mish bir kossa suv va non evaziga ajdahoni o'ldiradi.*
29. Qaysi asarda toza, xushta'm o'riklarning shoxini kesib tashlab, uni achchiq danak o'rik shoxiga, o'sgan nihollarning ho'l shoxini kesib, quruq shoxiga payvand qiluvchi ahmoq bog'bon haqidagi hikoyat keltirilgan?
A) *Sa'diy Sheroziy, "Bo'ston"*
B) *Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror"*
C) *Gulxaniy, "Zarbulmasal"*
D) *Xoja, "Miftoh ul-adl"*
30. Ollohning sifatleri, go'zallik asarlari butun borliqda aks etishini qalb ko'zi ochiqdargina ko'ra olishini, g'ofillar esa bundan bexabarligini "Jahon to'la, sen g'ofilsan Yoringdan" misrasi orqali bergan shoir kim?
A) *Turdi Farog'iy* B) *Maxtumquli* C) *Zavqiy* D) *Fuzuliy*
31. Shoir Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?
A) *Maknuna* B) *Dilshodi Barno* C) *Nodirabegim* D) *Jahon otin Uvaysiy*
32. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!
Shu so'zni aytiti tig' urdi o'ziga Ko'rinmay qoldi keng olam ko'ziga.
Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?
A) *Majnun, "Layli va Majnun"*
B) *Farhod, "Farhod va Shirin"*
C) *Suhayl, "Sab'ayi sayyor"*
D) *Suhayl, "Suhayl va Guldursun"*
33. Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek tiliga tarjima qilgan tarixiy asarlarni aniqlang.
1) "Shoh va gado"; 2) "Guliston"; 3) "Axloqi Muhsiniy"; 4) "Haft paykar"; 5) "Ravzat us-safo"; 6) "Badoye ul-vaqoye"
A) 1, 5, 6 B) 3, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6
34. "Bir kun yilonlar jam bo'lib aydilar: bizlar laklak bilan murosqa qilib qismat qilolir har kunda bir yilonni oning xo'rokiga berali, o'zgamizga zahmat bermasun. Barchalari aydilar: andoq bo'lsun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar".
Laylak va yilonlar haqidagi hikoyatdan olingan ushbu parcha. qaysi asarda, keltirilgan?
A) *"Guliston" (Sa'diy Sheroziy)*
B) *"Gulistoni bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)*
C) *"Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)*
D) *"Miftoh ul-adl" (Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja.)*
35. Quyidagi qaysi asarlarni Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan?
1) Mirxond, "Ravzat us-safo"; 2) Farohiy, "Mabbub ul-qulub"; 3) Badriddin Hiloliy, "Shoh va gado"; 4) Kaykovus, "Qobusnoma"; 5) Faxriddin Ali Safiy, "Latoyif at-tavoyif"
A) 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 3, 5
36. Quyidagi baytda qaysi badiiy san'at qo'llanmagan?
Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u guldorsiz.
A) *tashbeh* B) *tazod* C) *talmeh* D) *tanosub*

BIOLOGIYA

37. Quyionlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 20 sm li $A_1A_2A_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $A_1a_1a_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 smli quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 37,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irsiylanadigan turi mavjud bo'ladi?
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlansa, $AaBb \times aaBb$ genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.
A) $a-3:1:2:1:1; b-4:2:1:1$
B) $a-1:1:1:3:1:1; b-2:4:1:1$
C) $a-2:2:2:1:1; b-3:2:2:1$
D) $a-1:2:1:1:2:1; b-3:1:3:1$
40. Glitsin (a) va guanin (b) ga mos keluvchi belgilarni toping.
1) halqali aminokislota; 2) purin asosi; 3) pirimidin asosi; 4) asiklik aminokislota; 5) translyatsiyada ishtirok etadi; 6) DNKda sitozin bilan 3 ta vodorod bog'lari orqali birikadi; 7) oqsilda peptid bog'i hosil qilib birikadi
A) $a-3,6; b-1,5,7$
B) $a-1,3,7; b-2,6$
C) $a-4,5,7; b-2,5,6$
D) $a-1,5; b-3,6,7$
41. O'simlik sitoplazmasida achish jarayonida 160 kJ energiya ATF to'plangan bo'lsa, mitoxondriyada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF ga qancha energiya (kJ) bog'langan (b)?
A) $a-2560; b-91200$
B) $a-4640; b-4320$
C) $a-3480; b-3240$

- D) a-2320; b-86400
42. Ma'lum bir hayvon embrioni 3 marta meridinal bo'linganda hosil bo'lgan blastomerlardagi jami xromosomalar soni 4 marta ekvatorial bo'linishidan so'ng hosil bo'lgan blastomerdagi xromosomalar sonidan 15872 taga kam bo'lsa, ushbu organizm spermatozoidida nechta xromosoma bo'lishini aniqlang?
A) 16 B) 32 C) 64 D) 30
43. Kojan bilan birga bir sinfga (a) va yovvoyi cho'chqa bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gavial, kashalot, yexidna; b-zebra, tarpan, zubr
B) a-gornostoy, sayg'oq, o'rdakburun; b-jayron, qulon, arxar
C) a-kanna, suv ayrig'i, qiloyoq; b-zubr, sayg'oq, begemot
D) a-kuropatka, yelik, yexidna; b-karkidon, begemot, tapir
44. Noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada inversiya yuz berganda 14 ta xromosoma bo'ladi.
B) Makkajo'xori o'simligida 3-va 5-juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyoz 1 yakunida 8 yoki 12 ta xromosomal hujayralar hosil bo'ladi.
C) No'xai o'simligida 2-va 6-juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyoz 1 yakunida hujayrada 9 yoki 5 ta xromosoma bo'ladi.
D) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyoz 1 yakunida 45 yoki 51 ta xromosomal to'plam hosil bo'ladi.
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirquqsimonlarda urug';
3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;
5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Biosfera evolutsiyasining uchinchi bosqichida qanday jayaronlar sodir bo'lgan?
1) dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lishi; 2) biosfera gomeostaz holatining buzilishi; 3) qanotli hasharotlar rivojlanishi; 4) "parnik effekti" natijasida harorat ko'tarilishi; 5) qirg'oqqa yaqin joylashgan suvo'tlar tanasining tabaqalashuvi; 6) kislotali yomg'irlar yog'ishi oqibatida hosildorlikning keskin kamayib ketishi
A) 1,5,6 B) 2,3,4 C) 2,4,6 D) 1,3,4
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
a) namlik; b) topografik;
1) gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi; 2) zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi; 3) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi 4) o'simliklar o'rtasida yorug'lik uchun kurash; 5) yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminozi rivojlanishi; 6) yomg'ir chuvallanganining yozda pillaga o'rilib uyquga ketishi.
A) 1,2,5 B) 2,3,6 C) 1,2,4 D) 3,5,6
48. G'o'za ontogenezida zigotadan murtaq rivojlanishi o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?
A) modifikatsion-fenotipik
B) ontogenetik-fenotipik
C) genotipik-ontogenetik
D) modifikatsion-genotipik
49. Odamning ko'payishiga xos bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.
A) Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va esterogen ishlab chiqaradi.
B) Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshlab bachadonda 9 oy rivojlanadi.
C) Bachadonda bo'shlig'iga o'tgan homilaning tashqi qismidan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orqali homila bachadon devoriga birikadi.
D) X xromosomal spermatozoid va Y xromosomal tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.
50. Qaysi kasalliklar nafas olish organlari kasalliklari emas?
1) rinit; 2) faringit; 3) traxeit; 4) piyelonefrit; 5) botulizm; 6) aterosklerozi; 7) zotiljam; 8) laringit
A) 4,5,6
B) 1,2,3
C) 4,7,8
- D) 4,5,7
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilar orasidan sog'lom odamning siydik qopiga xos bo'lmagan belgilarni ajrating.
1) murtaq varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) siydik qopi devorida proprioretseptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siydik qopi muskullari qisqarib siydik ajraladi
A) 1,2,3 B) 1,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilympa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Qaysi javobda faqat o'pkasi yordamida nafas oluvchi organizmlar keltirilgan?
A) chumolixo'r, tapir, lama, salamandra
B) katta kivi, yexidna, triton, kazuar
C) suvilon, gatteriya guattara, ilonbo'yin toshbaqa, echkiemar
D) kolibri, yashil qurbaqa, malla revun, ko'l baqasi
55. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlarni aniqlang.
A) Sariq suvarak, moviy ninachi, to'shak qandalasi
B) yashil temirchak, Osiyo chigirtkasi, Turkiston termi, halqali ninachi
C) Osiyo chigirtkasi, suluv ninachi, kolorado qo'ng'izi, beshiktervatar
D) moviy ninachi, yashil temirchak, Turkiston termi, burga
56. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.
1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulkisi
A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) 1,2,5 D) 3,4,5
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra
A) a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8
B) a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9
C) a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7
D) a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9
58. Qaysi organizmlarda katta va kichik qon aylanish doirasi yagona qorinchadan boshlanadi?
a) itbaliq; b) salamandra; c) manta; d) qizilto'sh; e) kvaksha; f) gavial; g) turkiston agamasi
A) a,c B) a,b,e C) d,f D) b,e,g
59. Qoqshol qo'zg'atuvchisiga xos bo'lmagan xususiyat?
1) tallomida hosil bo'lgan o'simalarni ajratish yo'li bilan ko'payadi; 2) irsiy belgilari polinukleotid zanjirda joylashgan; 3) membranasi lipid va oqsil moddalaridan iborat; 4) ribosomalari endoplazmatik to'r bilan hamkorlikda oqsil sintezini amalga oshiradi; 5) hujayra qobig'i murein moddasidan iborat bo'lib, irsiy belgilari yadroda joylashgan; 6) membranasi sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi.
A) 2,3,6 B) 1,4,5 C) 1,3,5 D) 2,4,6

60. Eukariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) hujayra tarkibidagi mitoxondriya, xloroplast va yadro qo'shqavat membranaga ega; 2) sitoskelet hujayraning tayanch elementidir; 3) lizosomalarni hosil qiluvchi organoidlar membranasi tuzilishga ega; 4) o'simlik hujayrasining xitinsimon qobig'idagi maxsus teshikchalari orqali qo'shni hujayraning endoplazmatik to'r kanalchalari o'zaro tutashadi; 5) mitoxondriyaning kristallarida ko'plab fermentlar joylashgan
A) 2,5 B) 4,5 C) 3,5 D) 1,4
61. Organogenez (I) va gametagenenez (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.
1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyozi usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi
A) I-1,5; II-2,4
B) I-2,4; II-1,5
C) I-1,3; II-2,6
D) I-2,6; II-1,3
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarni aniqlang.
1) crossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyozi jarayonida xromosomalarning tasodifiy tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishining o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.
A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3
63. Reduplikatsiya (I) va denaturatsiya (II) uchun mos keluvchi ta'riflarni juftlang.
a) oqsillarning tabiiy holatini yo'qotishi; b) DNKning ikki hissa ortishi; c) xromosoma ayrim qismlarining ortishi; d) xromosoma o'rta qismining ajralishi
A) I-d; II-c
B) I-c; II-b
C) I-b; II-a
D) I-b; II-d
64. Zubturm (a) va nastarin (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan
B) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan
C) a-shoxlanmagan gulpoyaga gullar bandsiz birikkan; b-shoxlangan gulpoyaga to'g'ri gullar yig'ilgan
D) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqiligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpoyasining shoxlanishi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Karamdoshlar oilasi vakillarining ra'nodoshlar oilasi vakillaridan farqlarini toping.
1) gulqo'rg'oni murakkab, a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilari ikkita halqada joylashgan; 6) bargalari doim oddiy; 7) bargalari poyada ketma-ket joylashgan
A) 1,2 B) 3,4,7 C) 2,3,6 D) 5,6
67. Bo'y madaron haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) moychechakdoshlar oilasiga kiradi
B) to'pguli o'rama bargchalar bilan qoplangan
C) shuvoq turkumi vakili
D) to'pguli asosan naychasimon gultajibarglardan tashkil topgan
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta
A) 4,6,10 B) 1,2,3 C) 5,6,7 D) 7,8,9
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniyda yetiladi
B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi
C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'chi qubbalarida ochiq holda yetiladi
D) Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkittadan bo'lib joylashadi
70. Dala qirqbo'g'im tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lmagan atamalarni aniqlang.
1) urug'; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofill; 5) ayrim jinsli gametofit; 6) arxegoniy; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshqoq; 12) sorus
A) 2,3,5,9,11
B) 1,3,7,8,12
C) 1,5,7,10,12
D) 4,5,6,7,9,10
71. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) makkajo'xori; 2) ananas; 3) g'o'za; 4) tamaki; 5) zig'ir; 6) karam; 7) loviya; 8) suli
A) 2,7,8 B) 1,5,8 C) 2,4,6 D) 1,3,7
72. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

KIMYO

73. 0,2 mol natriy peroksidni regeneratsiya qilish uchun tarkibida hajm jihatdan 2% CO₂ tutgan havodan qancha hajm (litr, n.sh) zarur?
A) 224 B) 896 C) 448 D) 112
74. Propantriol-1,2,3 molekulasida tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) -5 B) -3 C) -4 D) -2
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.
A) Co B) Fe C) Cu D) Mo
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 67 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.
A) valin B) alanin C) gliutsin D) leysin
77. 17,8 g α-aminokislota dan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislota ni toping.
A) α-amino 2- metilpropan kislotasi
B) gliutsin
C) β-aminopropion kislotasi
D) α-aminopropion kislotasi
78. 42,4 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislotasi hosil bo'ladi? (η=0,75)
A) 43,2 B) 28,8 C) 14,4 D) 21,6
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi fenol massasini (g) aniqlang.
A) 47 B) 18,8 C) 37,6 D) 9,4
80. σ-bog'larini hosil qilishda 2 ta sp² – gibrilangan orbital qatnashgan moddalarni aniqlang.
1) H₃PO₄; 2) H₂SO₄; 3) HClO₄; 4) H₂CO₃; 5) HCOOH; 6) H₂SO₃
A) 1, 6 B) 2, 5 C) 2, 3 D) 4, 5
81. 110 g 10% li K₂S eritmasidagi barcha elektronlar sonini aniqlang.
A) 60,4·N_A B) 55·N_A C) 35·N_A D) 5,4·N_A
82. 1,1,2-trimetilsiklobutanni necha xil degalogenli alkandan Zn metali ta'sir ettirib olish mumkin.
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO₂ gazi, 0,2 mol benzoy kislotasi va 0,4 mol tereftal kislotasi hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.
A) 20,1; 12
B) 33,5; 80,4
C) 46,9; 93,8
D) 26,8; 53,6
84. Mol nisbatlari 1:3:2 bo'lgan C, Si, Cu dan iborat aralashmani to'la eritish uchun avvaliga 98% li sulfat kislotadan 450 g, so'ngra 40% li NaOH eritmasidan X g sarflandi. X ni aniqlang.
A) 480 B) 540 C) 360 D) 450
85. Necha gramm kaliy digidrofosfat tarkibida 47 g kaliy ozuqa elementi bo'ladi?
A) 102 B) 85 C) 153 D) 136
86. 6,72 litr (n.sh.) butan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.
A) $7 \cdot N_A$
B) $3 \cdot N_A$
C) $3,6 \cdot N_A$
D) $2,4 \cdot N_A$
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 3/16; 9/16; 1/4
B) 1/9; 2/3; 2/9
C) 3/10; 3/10; 2/5
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. ${}_{102}^{249}\text{No} \rightarrow {}_{96}^b\text{Cm} + x {}_2^4\alpha + y {}_0^1\text{n}$ yadro reaksiyasida 12,7 mg No yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
($a-x=249$; $x+y=9$)
A) $36,12 \cdot 10^{23}$
B) $12,04 \cdot 10^{19}$
C) $18,06 \cdot 10^{18}$
D) $96,32 \cdot 10^{18}$
89. MgSO₄·nH₂O kristallogidratida suvdagi elektronlar soni magniyning elektronlari sonidan 7 marra ko'p bo'lsa, n ni aniqlang.
A) 6 B) 10 C) 8 D) 7
90. Jami bog'lar soni 24 ta bo'lib, σ va π bog'lar soni ayirmasi 18 ga teng bo'lgan modda formulasini ko'rsating.
A) Al₂(SO₄)₃
B) (Al(OH))₃(PO₄)₂
C) (Al(OH))₂PO₄
D) Al₂(HPO₄)₃
91. 2A+xB→2C reaksiyasida 0,04·10² mol A moddaning 50% sarflangan, B ning 50% ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? (K_m=1)
A) 1 B) 4 C) 2 D) 5
92. 30,1·10²² dona Na va 6,02·10²⁴ dona H atomlari tutgan Na₂SO₄ ning suvli eritmasi massasini (g) toping.
A) 136 B) 156,2 C) 125,5 D) 148,4
93. 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Eritma moddaning molyar massasini (g/mol) aniqlang. (Reaksiya sodir bo'lmaydi)
A) 56 B) 40 C) 63 D) 98
94. Atomlari soni teng bo'lgan saxaroza va suv 25 °C da aralastirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmadagi saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.
A) 1350, 1350 B) 1500, 1200 C) 1134, 1566 D) 1410, 1290
95. Eritmadagi H⁺ ionlari OH⁻ ionlaridan 10¹⁰ marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.
A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. Xlorid kislotasi va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?
A) Cu²⁺
B) Fe²⁺
C) Na⁺
D) Ag⁺
97. KOH+H₃PO₄→KH₂PO₄+H₂O reaksiyada olingan mahsulotlar massasini yig'indisi va sarflangan ishqor massasi farqi 58,8 g bo'lsa, sarflangan 56% li ishqor eritmasi massasini (g) aniqlang.
A) 60 B) 78,4 C) 80 D) 44
98. Tarkibida 68 g AgNO₃, 34 g NaNO₃, 48 g CuSO₄ bo'lgan eritmalar solingan elektrolizorlar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 6,7 A tok yordamida 2 soat davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 43,2; 0,5; 9,6
B) 43,2; 0,5; 12,9
C) 43,3; 0,5; 9,8
D) 43,3; 0,5; 16
99. 46/42 g azot oksidi tarkibida 2/6 g azot bor. Shu oksid tarkibidagi azotning ekvivalentini aniqlang.
A) 7 B) 7/2 C) 14/3 D) 14/5
100. Mo'l miqdordagi uglerod Al₂O₃ va CaO aralashmasiga qo'shib qizdirilganda hosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislotasi ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 3,9 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 1 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini g aniqlang. (Havo tarkibida hajm bo'yicha 20% O₂ bor)
A) 3,4; 4,2 B) 0,8; 0,34 C) 6,8; 8,4 D) 13,6; 16,8
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, litiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda Na₂SO₄·10H₂O kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.
A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103. xMgCO₃=yMgCO₃+zMgO+zCO₂ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) MgCO₃ tarkibida qo'shimchalar borligini
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Noma'lum gazning CO₂ bilan aralashmasida uning massa ulushi 17,5%, hajmiy ulushi esa 25% ga teng bo'lsa, noma'lum gazni aniqlang.
A) N₂
B) Ne
C) C₂H₂
D) CH₄
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N₂O larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.
A) 3:8 B) 3:4 C) 3:2 D) 1:1
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.
1) (NH₄)₂CO₃; 2) K₂SO₄; 3) CH₃COONH₄; 4) NaNO₂; 5) Cu(NO₃)₂; 6) (CH₃COO)₂Ca
A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. Propan va pentan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan CO₂ miqdori suvning miqdoridan 0,3 molga kam, sarflangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan CO₂ miqdoridan 0,7 mol ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi propanning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,2 B) 0,3 C) 0,1 D) 0,5